

NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXSIKENT TARIXIY YODGORLIGINING O‘RNI.

Topildiyev Odiljon Rahimjonovich

NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası professori, t.f.n.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21042864>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axsikent tarixiy yodgorligi Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etishi, Ayniqsa, xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilib sayyohlar jalb etilayotgani taxlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Axsikent tarixiy yodgorligi, Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirish, Ahsi yodgorligi, Tarixiy brend.

Аннотация: В данной статье проанализировано значение исторического памятника Ахсикент в повышении туристического потенциала Наманганской области. Особое внимание уделено тому, что на международных туристических выставках проводятся презентации, посвященные древнему Ахсикенту, что способствует привлечению иностранных туристов.

Ключевые слова: исторический памятник Ахсикент, повышение туристического потенциала Наманганской области, памятник Ахси, исторический бренд.

Abstract: This article analyzes the significance of the Ahsikent Historical Monument in enhancing the tourism potential of the Namangan region. Particular attention is given to the fact that presentations about ancient Ahsikent are held at international tourism exhibitions, contributing to the attraction of foreign tourists.

Keywords: Ahsikent Historical Monument, enhancement of the tourism potential of the Namangan region, Ahsi archaeological site, historical brand.

Bugungi kunda Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratish va yangi turistik manzillarni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan qator loyihalar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Viloyatda turizm salohiyatini rivojlantirishda tarixiy va arxeologik joylarning o'rni beqiyos bo'lib, ular asosan hududning o'ziga xos tarixiy-madaniy qiyofasini belgilash orqali mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etishda muhim drayver soha hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil Namangan viloyatiga tashrifida “Axsikent - buyuk tariximiz ko'zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko'rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o'tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o'rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo'lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg'aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak”³¹ – deb aytgan fikrlari viloyatda Axsikent tarixiy yodgorligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, hamda hozirgacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Axsikentning asosiy qismi eradan avvalgi X - IX asrlarda o'zlashtirilgan bo'lib, eski Axsi yodgorligi hududida dehqonlar qarorgohi bo'lganligi aniqlandi. Shahar sifatida Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo'lib, qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan. Xususan, “Boburnoma”da bu shaharning alohida ahamiyati haqida yozib qoldirilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Bu yerda o'z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan. 1620 yillarga kelib

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil 28 fevraldagi Namangan viloyatiga tashrifidagi nitqi.

zilzila oqibatida ulkan shahar vayron bo‘lgan. Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi - Ark qazib o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga ko‘ra 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha keng qamrovli amaliy ishlar boshlandi. Buning natijasida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi davlat unitar korxonasi tashkil etildi. “Axsikent” arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- majmuani lozim darajada muhofaza qilish, but saqlanishini ta‘minlash va belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan arxeologlar tomonidan arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini tashkil etish, chuqur ilmiy arxeologiya tadqiqot natijalari asosida majmuaning ilmiy-tarixiy konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- qadimiy Axsikent shahriga oid respublika va xorijda saqlanayotgan manbalarni malakali mutaxassis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda atroflicha tadqiq etish, ular haqidagi batafsil ma’lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, nashr materiallarini tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etish;
- tarixiy-ilmiy asoslar bo‘yicha qadimiy Axsikent shahrining maketlarini tayyorlash, arxeologiya ashyolari, qadimiy qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar. osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to‘plamlar, video va foto hujjatlar kabi boshqa manbalar hisobidan muzeylashtirilgan ekspozitsiya-ko‘rgazma yaratish, yuqori

texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

- turistlar, ilmiy tadqiqotchilar va tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, tarixiy ko‘rinishni saqlagan holda majmuaning muhofaza hududidan tashqarisida zamonaviy kompleks dam olish maskanlarini tashkil etish va majmuaning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Axsikent tarixiy yodgorligi Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etib keloqda. Ayniqsa, xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilib sayyohlar jalb etilmoqda. Buning natijasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o‘rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortib bormoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrifi ortib bormoqda.

Xozirda Axsikent tarixiy yodgorligini tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan hamda shu asosda Farg‘ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil fevral oyida Namangan viloyatiga tashrifida Axsikent majmuasi bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan obyektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma’lumot berilgan. Unga ko‘ra, Axsikentda muzey tashkil etilishi va uning qadimiy dovrug‘ini tiklash maqsadida ramziy darvoza qurilishi, Umarshayx Mirzo va Boburning Kamoliddin Behzod chizgan suratlari asosida ularning haykali bunyod etilishi, sayyohlar uchun Sirdaryo bo‘ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko‘hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratilishi belgilandi. Shuningdek, bu yerda zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilib, Axsikent turizm manziliga aylantirildi.

Xozirda Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o‘rganish, ajdodlarimizning asl o‘tmishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va yosh avlodga singdirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilmoqda. Statistik taxlillardan ko‘rish mumkinki Namangan viloyatiga 2024 yilda 510 ming nafar xorijiy hamda 3,6 mln. mahalliy sayyoh tashrif buyurgan va turizm xizmatlari eksporti 190,8 mln. dollarni tashkil etgan. 2025 yilda esa turizm sohasi sezilarli o‘sishni namoyon etdi. Viloyatda xalqaro tadbirlar o‘tkazilishi natijasida xorijiy turistlar soni 1,5 mln kishiga, mahalliy turistlar esa 5,2 mln kishiga oshdi. Turizm xizmatlari eksporti 224,2 mln dollarni tashkil etdi, yillik reja ko‘rsatkichlari esa 107 foizga bajarildi³².

Axsikent tarixiy yodgorligiga va Namangan viloyatiga sayyohlarni keng jalb qilish uchun quyidagi takliflarga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan,

- Tarixiy brendni kuchaytirish Axsikentni “Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxti” sifatida targ‘ib qilish. Uning Zahiriddin Muhammad Bobur oilasi tarixi bilan bog‘liqligini namoyon qilish. Ipak yo‘li shaharlari marshrutiga kiritish;

- Zamonaviy turistik infratuzilma markazi, interaktiv muzey va multimedia ekspozitsiyalarini tashkil etish. Elektron gidlar (QR-kod, audio-gid, mobil ilovalar) joriy qilish. Kafe, suvenir do‘konlari va dam olish hududlarini ko‘paytirish;

- Madaniy festivallar o‘tkazish “Axsikent tarixi kunlari” festivali. Qadimiy hunarmandchilik va temirchilik namoyishlari. Milliy taomlar va folklor festivallari;

- Raqamli marketing YouTube, Instagram, Telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali professional videoroliklar tarqatish. Bir necha tillarda veb-sayt va virtual 3D sayohat yaratish, targ‘ib qilish;

- Turistik marshrutlar yaratish Axsikentni Namangan viloyatining boshqa diqqatga sazovor joylari bilan bog‘lash. Shunda turist bir kunlik emas, bir necha kunlik sayohat qiladi;

³² <https://www.uzdaily.uz/uz/namangan-2025-yilda-15-mln-xorijiy-turistni-qabul-qildi-turizm-xizmatlari-eksporti-224-mlndan-oshdi/>

- Xalqaro hamkorlik Arxeologik tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferensiyalar tashkil qilish. Universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish. Axsikentni xalqaro meros obyektlari ro'yxatlariga kiritish bo'yicha ishlarni kuchaytirish. Kutiladigan natijalar Namangan viloyatiga keluvchi sayyohlar sonining oshishi. Yangi mehmonxona, restoran va xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishi. Yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratilishi. Axsikentning xalqaro miqyosda tanilishini yanada oshiradi. Shuningdek, bu tadbirlar mahalliy va xorijiy mehmonlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish viloyat imidji va jozibadorligini rivojlantirishda hal qiluvchi muhim rol o'ynamoqda. Bu o'rinda Axsikent tarixiy yodgorligi sayyohlarni jalb etishda viloyatning o'ziga xos tashrif brendi sifatida namoyon bo'limoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'hati.

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi “Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to'g'risida”gi 831-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-sonli Farmoni.

3. Мансуров М., Мадрахимова М.. Мустақиллик йилларида Наманган вилоятида туризм тараққиётининг архив ҳужжатларида акс этиши / Фарғона водийсининг XVIII–XXI асрлардаги тарихини тадқиқ этишда ёзма, босма манбалар ва улардан фойдаланиш муаммолари. Халқаро илмий конференция. – Андижон, 2018.

4. Матбабаев Б., Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон, 1994.

5. <https://www.uzdaily.uz/uz/namangan-2025-yilda-15-mln-xorijiy-turistni-qabul-qildi-turizm-xizmatlari-eksporti-224-mlndan-oshdi/>